

Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha

SHARTNOMA №78814/1

“ 24 ” may 2022 yil

Farg'ona shahar

Quvasoy shahar tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi **B. TASHBALTAYEV** (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) bir tomondan va **"SHARQ DURDONA GRAND"** mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor **YU.ARTIKOVA** (keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataladi), ikkinchi tomondan keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorser mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini oshxona xizmati xamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:

2022 yil « 24 » maydan.

2022 yil «31» dekabrgacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolaniib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

II. To'lov tartibi

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "oshxona xizmati" umumiy qiymatining 30 % ni oldindan **160 496 640** so'm miqdorda "Autsorser"ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "oshxona xizmati"lar to'lovining qolgan, ya'ni 70% qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "oshxona xizmati" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

3.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

3.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

3.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

3.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

3.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

3.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

3.2. Autsorser quyidagilarga majbur:

3.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi;

3.2.2. Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya etishi;

3.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

3.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

3.2.5. Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

3.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

3.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autosorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

3.2.8. Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Autosorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

3.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

3.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

3.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

3.2.12. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlash;

3.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

3.2.14. Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;

3.2.15. Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

3.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

3.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;

3.3.2. Autosorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;

3.3.3. Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Autosorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;

3.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

3.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

3.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;

3.4.2. Autosorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;

3.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

IV. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

4.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi **534 988 800** (besh yuz o'ttiz to'rt million to'qqiz yuz sakkiz ming sakkiz yuz) so'mni tashkil etadi.

4.2. Autosorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

4.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Autosorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Autosorser va Buyurtmachi tomonidan imzoladigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

4.4. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

4.5. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Autosorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

5.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.

5.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar.

5.4. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (autosorserning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

5.5. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

6.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

6.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi..

VII. Fors-major holatlar

7.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi

VIII. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tomonlarkelishuvi

8.1. Taraflarshartnomatuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflarshartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.4. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek xar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini kafolatlaydi.

8.5. Shuningdek tomonlar o'rtasida korrupsiya xolatlari sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 12-noyabrdagi 1/4671,01-19/7284,7/01-08-9544-son qaroriga muvofiq vakolatli davlat organlarini darxol xabardor qilishi shart.

8.6. Bir tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga xamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli.

IX. Яқунловчи қондалар

9.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

9.3. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi rozilgisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

9.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

X. Shartnomaning amal qilish muddati

- 10.1..Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.
10.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.
10.3. Ushbu shartnoma hududiy G'aznachilik boshqarmasi (bo'limi) tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.
10.4. Shartnoma 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi.

XI. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Autorser»

"SHARQ DURDONA GRAND"
MCHJ

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar ,
Tinchlik 3 -uy
Bank: Agro bank Farg'ona
viloyati filiali
MFO: 00495 INN: 307 005 271
x/r: 20208 000 905 160 271 001
Tel: (91) 115-41-50

"SHARQ DURDONA GRAND"
MCHJ rahbari
YU. ARTIKOVA



«Buyurtmachi»

Quvasoy shahar tibbiyot birlashmasi

Quvasoy shahar Shifokorlar ko'chasi 1-uy

Shh/r: 1000221860304087013/0105/005
STIR: 200123134 OKONX:97600
Farg'ona shahar bo'yicha G'aznachilik
boshqarmasi
H/r:23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shahar HKKM
MFO: 00014 STIR: 2011122929

Quvasoy shahar tibbiyot birlashmasi
boshlig'i:
B.TASHBALTAYEV



SHARTNOMANING PROGNOZ SUMMASI

	Oylar	Oydagi kunlar soni	O'lchov birligi	Xizmat birligi uchun narx (so'm)	Xizmat birliklari soni	Jami summa QQS siz (so'm)
1.	Yanvar	31				
2.	Fevral	28/29				
3.	Mart	31				
4.	Aprel	30	xizmat	11520	5160	59 443 200
5.	May	31	xizmat	11520	5160	59 443 200
6.	Iyun	30	xizmat	11520	5160	59 443 200
7.	Iyul	31	xizmat	11520	5160	59 443 200
8.	Avgust	31	xizmat	11520	5160	59 443 200
9.	Sentyabr	30	xizmat	11520	5160	59 443 200
10.	Oktyabr	31	xizmat	11520	5160	59 443 200
11.	Noyabr	30	xizmat	11520	5160	59 443 200
12.	Dekabr	31	xizmat	11520	5160	59 443 200
	Shartnomanig jami summasi				46440	534 988 800

Quvasoy shahar tibbiyot birlashmasi boshlig'i:



[Handwritten signature]

B.TASHBALTAYEV

SHARQ DURDONA GRAND"
MCHJ rahbari:



[Handwritten signature]

YU. ARTIKOVA

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUNCHILIK
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ LS6320284666

1. Loyihaning turi: Shartnoma № 78814/1-sonli.

2. Loyihaning turkumi: Outsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha.

3. Loyihaning ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Quvasoy shahar Tibbiyot birlashmasi bilan "SHARQ DURDONA GRAND" mas'ulyati cheklangan jamiyati o'rtasida ishlab chiqilgan, umumiy bahosi 534 990 348 (Besh yuz o'ttiz to'rt million to'qqiz yuz to'qson ming uch yuz qirq sakkiz) so'm bo'lgan hamda 2022-yil 25-may kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan shartnoma loyihasi.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, unga ko'ra:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos holda tuzilganligini;


- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra.

XULOSA:

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

**Quvasoy shahar YXK
markazi bosh yuriskonsulti**



R.Ermatov

2714693



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SHARQ DURDONA GRAND" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"SHARQ DURDONA GRAND" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

08.01.2020

798752

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

307005271

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Tinchlik ko'chasi, 3-uy.

Guvohnoma:

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 78814 на приобретение Услуга по обеспечению горячим питанием пациентов Кувасой Шахар Тиббиёт Бирлашмаси

Способ проведения электронный

Дата 18.05.2022

Время рассмотрения 18.05.2022 16:53

Конкурсная комиссия Кувасой шахар Тиббиёт Бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	TASHBALTAYEV BAXROMJON RUSTAMOVICH	Директор	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Секретарь комиссии	IBROXIMOV BUNYODBEK XAYOTBEK O'G'LI	Секретарь	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Член комиссии	MURATOV YURSUNALI TAGIROVICH	Бош хисобчи	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Член комиссии	QAYUMOV XUSENJON YADGOROVICH	Шартномалар бўйича мутахассис	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Член комиссии	ABDURAHIMOV TOXIR SATVOLDIYEVICH	Фармацевт	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Член комиссии	XOJIMAXSUDOV NURIDDIN AXLIDINOVICH	Зам глав врач	КУВАСОЙ ШАХАР ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 18.05.2022 года № лота 78814.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф. технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	

10320
11578
59742480

Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Подробное описание	Услуги по аутсорсингу приготовления еды
Количество товара	5 160.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	11 578.00
Стартовая сумма	59 742 480.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Предоставить список сотрудников

Тип: Текстовое значение

Описание: Список сотрудников находящийся в штате у аутсорсера с указанием образования и должности , указать наличие санкнижки для осуществления деятельности на территории пищеблока КШТБ

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	Ошпазлар ва ошхона ишчилари руйхати	9	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	6	Экспертная		

Критерий №2 Наличие кухонного оборудования , бытовой техники и машин

Тип: Текстовое значение

Описание: Составить и прикрепить список кухонного инвентаря имеющегося у исполнителя (Аутсорсера)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	бор	10	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	5	Экспертная		

Критерий №3 Предоставить список сотрудников

Тип: Текстовое значение

Описание: Список сотрудников находящийся в штате у аутсорсера с указанием образования и должности , указать наличие санкнижки для осуществления деятельности на территории пищеблока КШТБ

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	бор	9	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	5	Экспертная		

Критерий №4 Справка с ГНИ

Тип: Текстовое значение

Описание: Предоставить справку с ГНИ об отсутствии задолженностей по налогам и прочим юридическим обязательствам

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	бор	10	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	6	Экспертная		

Критерий №5 Лицензия

Тип: Текстовое значение

Описание: Предоставить документы разрешающие деятельность по предоставлению услуги аутсорсинга

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	гувохнома низом	9	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	7	Экспертная		

Критерий №6 Справка из банка о финансовом состоянии

Тип: Текстовое значение

Описание: Предоставить справку из о финансовом состоянии (наличии денежных средств на расчетном счету)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	бор	10	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	8	Экспертная		

Критерий №7 Применное меню

Тип: Текстовое значение

Описание: Применное меню предлагается

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	10	Тахминий меню	10	Экспертная		
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	10	10	6	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	537 682 320.00	536 846 400.00	17.05.2022 18:09:57	19.93
SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	537 682 320.00	534 988 800.00	17.05.2022 12:49:14	20.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi	49.1432	19.93	69.0732

SHARQ DURDONA GRAND MCHJ	76.5712	20	96.5712
--------------------------	---------	----	---------

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 78814 от 18.05.2022 года на приобретение Услуга по обеспечению горячим питанием пациентов Кувасой Шахар Тиббиёт Бирлашмаси определила победителем:

SHARQ DURDONA GRAND MCHJ
307005271

и резервный исполнитель: "FAYZ MUMTOZ NE'MATI" Xususiy korxonasi (306135554)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	TASHBALTAYEV BAXROMJON RUSTAMOVICH	Согласен	
Член комиссии	ABDURAHIMOV TOXIR SATVOLDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	MURATOV YURSUNALI TAGIROVICH	Согласен	
Член комиссии	QAYUMOV XUSENJON YADGOROVICH	Согласен	
Член комиссии	XOJIMAXSUDOV NURIDDIN AXLIDINOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП